



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025  
1-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova</b> Boshqaruv samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy asoslari	150
<b>Askar Axrorovich Siddikov, Islomjon Umrzoq o‘g‘li Yovqochov</b> Yashil mehmonxona va restoranlar: ekologik boshqaruv va barqarorlik	154
<b>ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>Шохида Ильясовна Артикова, Дилноза Наврузовна Султонова</b> Реальные инвестиции как фактор повышения развития экономики страны	157
<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Xurshida Abdumalikovna Karjavova</b> Sug‘urta xizmatlari bozorini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari	161
<b>Alisher Komilovich Baxadirov</b> O‘zbekistonda lizing oluvchilarni ijara muomalalari hisobining amaldagi holatini barqarorlashtirish yo‘llari	167
<b>Faridun Mustafoyevich Tursunov</b> Tijorat banklarida innovatsion masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning ahamiyatli jihatlari	172
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Мамаюнус Каршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусова Пардаева, Севара Абдиназаровна Бабаназарова</b> Инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили) фанининг вазифаларига оид фикрлар	177
<b>Tolmasjon Namoz o‘g‘li Qurbonov</b> “Yashil iqtisodiyot”ning iqtisodiy samaradorligini baholash tahlili	182
<b>Otabek Olimjonovich Sobirov</b> Boshqaruv hisobida sifat nazoratini tashkil etish va takomillashtirish	190
<b>Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова</b> Корхоналарда даромад ва харажатлар таснифини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш	192
<b>Sirojiddin Haydarovich Shermamatov</b> Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini tashkil etishning muammo va istiqbollari	200
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Азимжон Фаррухович Мустафоев</b> Нодавлат таълим ташкилотларида моддий харажатлар ҳисобини такомиллаштириш	205
<b>To‘lqin Mardiyev, Azizbek Gafurov</b> Qardosh bo‘lmagan tillarda iqtisodiy idioma va frazeologiyalarning leksik-semantik xususiyatlari	212
<b>Хилола Нематовна Очилова</b> Камбағалликни қисқартиришда олий таълим муассасаларининг ўрни ва аҳамияти	215
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Каршибаевич Пардаев</b> 1. Энг зарур тиббий ўғитлар. 2. Онкологлар энди мени кечирмайди. бутун дунё топмаган дардимга, биргина мева даво бўлди!!	219

Otabek Olimjonovich Sobirov – Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida dotsenti, PhD

## BOSHQARUV HISOBIDA SIFAT NAZORATINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini samarali yuritishda sifat nazoratini tashkil etish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mahsulotni yuqori sifatlilikini ta‘minlashga ta‘sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Bundan tashqari, sifat nazoratini tashkil etishni mahsulot va uni realizatsiya qilinishidagi ahamiyati, korxonalarni kelgusi strategik rejalariga ta‘siri, kelgusida ishlab chiqarish jarayonida sifat nazoratini o‘rnatish va unda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilingan hamda ularni yechimiga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** sifat nazorati, boshqaruv hisobi, ishlab chiqarish, foyda, xarajatlar, ichki nazorat, zamonaviy texnologiyalari, strategik boshqaruv qarorlari, eksport, moddiy resurslar.

**Kirish.** Hozirgi kunda dunyo iqtisodiyoti jadal rivojlanib bormoqda, buni butun dunyo bo‘ylab ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda yildan-yilga ishlab chiqarilgan mahsulotlarni hajmini ortib borayotganligidan ko‘rish mumkin. Albatta, katta hajmda mahsulot ishlab chiqarishdan avvalo uni sotish masalasi ko‘ndalang turadi. Dunyo bozoriga mahsulot eksport qiluvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri doimo sifatli va arzon bo‘lgan, boshqa bir korxonani ayni shu turdagi mahsulotidan arzon va sifatli bo‘lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishi kerakligidir. Bu ko‘pdan-ko‘p korxonalarni raqobat muhitida ishlashiga undaydi. Agarda bunday raqobat muhitiga bardosh bera olmasa korxonalar oxiri moliyaviy xatarlarga duch kela boshlaydi va moliyaviy resurslarni yo‘qotilishi natijasida faoliyatini tugatilishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonini qabul qilinishi xar bir korxonada oldiga ishlab chiqaradigan mahsulotni sifatli va arzonligini ta‘minlash kabi dolzarb vazifalarni belgiladi. Ushbu islohotlar natijasida yurtimizda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va tadbirkorlarga qulay ishbilarmonlik va infratuzilmani yaratish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulotni sifatli va arzonligini ta‘minlash kabi ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Boshqaruvda sifat nazoratini tashkil etish borasida tadqiqot olib borgan xorijlik olimlardan A.V.Feygenbaum, Deming, Eddous M., Stenfield R, Makino T., Oxasi M., Doke X., Makino K va boshqalarni izlanishlarini e‘tirof etish lozimdir.

Boshqaruv hisobida sifat nazoratini tashkil etish borasida ilmiy izlanishlar olib borgan mamlakatimiz olimlardan M.Q.Pardayev, A.X.Pardayev, Z.Pardayeva, B.A.Xasanov, M.To‘laxojayeva, R.Do‘smuratov, O.O.Sobirov va boshqalarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyatga ega.

Sohada tadqiqot olib borgan **Demingning** fikricha, sifatni statistik nazorat qilish ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida xaridorga zarur bo‘lgan yuqori darajadagi tejamkor mahsulot ishlab chiqarishni ta‘minlovchi yagona va muhim omildir. Statistik nazoratni esa statistik usullarni qo‘llash orqaligina amalga oshirish mumkin, deb hisoblagan.

Aynan shu davrda **A.V.Feygenbaum** umumiy sifat nazorati to‘g‘risidagi tezisini yaratdi (Total Quality Control - TQC). **Feygenbaumning** fikricha, umumiy sifat nazorati tamoyili shundan iboratki, bunday nazorat mahsulotga dastlabki ishlov berishdan boshlanib, u iste‘molchi talabini to‘la qondirgan holda uning qo‘liga tushishi bilan yakunlanadi.

Iqtisodchi olimlar **A.Pardayev** va **Z.Pardayevalar** esa xo‘jalik yurituvchi subyektda ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatini unga qo‘yilgan talabni qondirish darajasi bilan belgilanib, texnik shart-sharoitlar ko‘rinishida shakllanadi. Lekin mahsulot sifatini aniqlashdagi hal qiluvchi omil iste‘molchi talablarini qondirish darajasi bilan belgilanadi” deya ta‘kidlagan.

Shuningdek, iqtisodchi olim **O.Sobirov** yuqoridagi olimlarning bildirgan fikr-mulohazalarini inkor etmagan holda “sifat nazoratini samaradorligi - mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etishni loyihalashdan toki tayyor holga keltirilib, uni istemolchiga sotishgacha bo‘lgan, shuningdek iste‘molchida foydalanishda bo‘lgan ma‘lum bir kafolat davrigacha bo‘lgan

samaradorlik bilan belgilanadi” degan yondashuvni bildirgan. Yuqoridagi yondashuvlar “sifat nazorati”ni tashkil etishni maqsadini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Boshqaruv hisobini takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotimiz mobaynida sifat nazoratini tashkil etish borasida: ma’lumotlarni guruhlash, ekspert xulosalaridan foydalanish, qiyosiy tahlil, mantiqiy fikrlash va boshqa usullardan samarali foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Boshqaruv hisobining shakllanishi bilan buxgalterlar zimmasiga nafaqat xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, balki korxonalar hisob siyosatini shakllantirish, loyihalar tahlili, shuningdek segmentlar bo’yicha xarajat va daromadlarni hisobga olish va boshqa turli vazifalar yuklatildi va bu esa xo’jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobining samarali tizimini tashkil etish uchun vaqt yetishmasligiga olib kelmoqda.

Boshqaruv hisobida sifatni boshqarish borasidagi birinchi izlanishlar XX asrning 30-yillariga to’g’ri keladi. Xususan, AQSh hukumati ayrim turdagi eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni yetkazib berish muammosi bilan bevosita to’qnashadi. Bunday holatda AQSh hukumati buyurtmalari asosan xususiy xo’jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilgan. Sababi, juda ishonchli va sifatli mahsulot ishlab chiqarish zaruriyati eng muhim masala bo’lgan.

Katta hajmdagi ishlab chiqarish sharoitida sifatni samarali nazorat qilishni ta’minlash zarur edi. Aynan shundagina sifatni nazorat qilishning statistik usuli keng qo’llanildi.

Nazoratning statistik usullari hamda sifatni boshqarishning shakllanishida, keyinchalik uning fan va amaliyot sifatida rivojlanishida Demingning o’rni katta. Demingning fikricha, sifatni statistik nazorat qilish ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida xaridorga zarur bo’lgan yuqori darajadagi tejamkor mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlovchi yagona va muhim omildir. Statistik nazoratni esa statistik usullarni qo’llash orqaligina amalga oshirish mumkin, deb hisoblagan.

Aynan shu davrda A.V.Feygenbaum umumiy sifat nazorati to’g’risidagi tezisini yaratdi (Total Quality Control – TQC). Feygenbaumning fikricha, umumiy sifat nazorati tamoyili shundan iboratki, bunday nazorat mahsulotga dastlabki ishlov berishdan boshlanib, u iste’molchi talabini to’la qondirgan holda uning qo’liga tushishi bilan yakunlanadi.

Umuman olganda qayd etish lozimki, sifat nazoratini samaradorligi - mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etishni loyihalashdan toki tayyor holga keltirilib, uni istemolchiga sotishgacha bo’lgan, shuningdek istemolchida foydalanishda bo’lgan ma’lum bir kafolat davrigacha bo’lgan samaradorlik bilan belgilash maqsadga muvofiqdir.

Mahsulot ishlab chiqarishda sifat nazoratini tashkil etish orqali quyidagi maqsadlarga erishishni ta’minlaydi:

- har bir ishlab chiqarishda ishtirok etadigan xodimlar salohiyatini doimiy yuksaltirib borish;

- ishlab chiqarish texnologiyalarini zamonaviy texnologiyalar bilan qayta jihozlash;

- ishlab chiqarishda energiya tejamkor uskunalardan samarali foydalanish;

- ishlab chiqarishda qatnashadigan moddiy resurslarni mahalliyashtirish va boshqalar.

Ushbu vazifalarni amalda bajarilishi sifatli, arzon va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga erishilishi ta’minlanadi.

**Xulosa va takliflar.** Biz yuqorida xo’jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini samarali yuritish va unda sifat nazoratini tashkil etish borasida fikr yuritdik. Sifat nazoratini tashkil etish korxonalariga, albatta, katta samara keltiradi.

Xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida sifat nazoratini tashkil etishda quyidagi takliflarni qo’llash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida sifat nazorati amalga oshirish bo’yicha tizimni tashkil etish va uni faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

- mahsulot tarkibini tashkil etuvchi xar bir moddiy resurslarni yuqori sifatli bo’lishiga e’tibor qaratish;

- mahsulot tarkibidagi moddiy resurslarni zamonaviy texnologiyalar asosida sifatini baholash va sifatligi bo’yicha tasniflash;

- ishlab chiqarishda nuqsonli mahsulotlar ishlab chiqarilishini oldini olish va javobgarlikni mas’uliyat mazkazlari zimmasiga yuklash;

- ishlab chiqarishda nuqsonli mahsulotlar ishlab chiqarishishi xatarini sug’urtalashni joriy

etish;

- ishlab chiqarishga mahalliy resurslarni jalb etish hisobiga ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va boshqalar.

Mazkur takliflarni amalda qo‘llash orqali xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar sifatli va arzon mahsulotlarni ishlab chiqarishi, moliyaviy holat barqarorligini ta‘minlash va daromadini yanada oshirib borish imkoniyati yaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi: Darslik.T.:“Iqtisod-Moliya”, 2019-yil.
2. Sobirov O.O. Boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. Namangan. Usmon Nosir Media nashriyoti. 2023-yil.
3. Sobirov,O.O. “Improvement of management accounting in economic entities”. Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation on Economic Sciences.Tashkent.TMI (2022).
4. Sobirov, Otabek. “Boshqaruv hisobida mas’uliyat markazlarini tashkil etish masalalari”. (2024). 2024 - yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz.
5. Sobirov, Otabek Olimjonovich. “Improment of management accounting methodology in economic entities.”Scientific Journal of International Finance & Accounting” TMI 2 (2023): 2181-1016.

<p><b>О.Собиров</b></p> <p><b>Организация и совершенствование контроля качества со стороны руководства</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье анализируются факторы, влияющие на организацию контроля качества в эффективном управленческом учете хозяйствующих субъектов, а также на обеспечение высокого качества продукции в хозяйствующих субъектах, специализирующихся на производстве и оказании услуг. Кроме того, проанализированы важность организации контроля качества продукции и его внедрения, его влияние на будущие стратегические планы предприятий, установление контроля качества в будущем производственном процессе и проблемы, которые при этом возникают, а также разработаны научные предложения для их решения.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> контроль качества, управленческий учет, производство, прибыль, затраты, внутренний контроль, современные технологии, стратегические управленческие решения, экспорт, материальные ресурсы.</p>	<p><b>O.Sobirov</b></p> <p><b>Organization and improvement of quality control by management</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article analyzes the factors affecting the organization of quality control in the effective management accounting of business entities, ensuring high quality of products in business entities specializing in production and service provision. In addition, the importance of organizing quality control of the product and its implementation, its impact on future strategic plans of enterprises, the establishment of quality control in the future production process and the problems that arise in it are analyzed, and scientific proposals are developed to solve them.</p> <p><b>Keywords:</b> quality control, management accounting, production, profit, costs, internal control, modern technologies, strategic management decisions, export, material resources.</p>
--	---

**Бобур Фарходович Боронов** – СамИСИ профессори в.б., и.ф.д. (DSc)

**Дилноза Гафуровна Худайназарова** – СамИСИ мустақил тадқиқотчиси

**КОРХОНАЛАРДА ДАРОМАД ВА ХАРАЖАТЛАР ТАСНИФИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

<p><b>Аннотация.</b> Мақолада даромад ва харажатларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги таснифи тадқиқ этилган, унда хорижий ва мамлакатимизда ишлаб чиқилган даромад ва харажатлар таснифига оид меъёрий ҳужжатлар таҳлили, даромад ва харажатларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги таснифий асослари, миллий ва халқаро стандартларда келтирилган тартиб-қоидалар очиқ берилган. Шунингдек, тадқиқотлар натижасида бухгалтерия ҳисобида даромад ва харажатларни назарий жиҳатдан такомиллаштирувчи таърифлари муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.</p> <p><b>Калит сўзлар:</b> одатий фаолиятдан олинган даромадлар, бошқа тушумлар, одатий фаолият бўйича харажатлар, бошқа харажатлар, операцион даромадлари, молиявий фаолиятдан олинган даромадлар, фавқулдда фойда, давр харажатлари.</p>
---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.